

## CONCEPTS OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGY

**Oxunova Mavludaxon Odiljon qizi**

UBS Faculty of Preschool and School Education

Theory and Methodology of Education and Upbringing

(Primary Education) Educational Direction

1st Year Master's Student

[mavludaoxunova1@gmail.com](mailto:mavludaoxunova1@gmail.com)

### Abstract

This article analyzes innovative pedagogical technologies and their significance and concepts in teaching.

### Key words

Pedagogical technology, pedagogical goals, teaching technology, innovation, innovativeness, innovative process, innovative activity, innovative environment, innovation, innovator, innovative pedagogical plan, innovative pedagogical idea, innovative education, innovative technology, innovative educational goals, principle.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar va uning o'qitishdagi ahamiyati va tushunchalari tahlil qilingan.

### Tayanch tushunchalar

Pedagogik texnologiya, pedagogik maqsadlar, o'qitish texnologiyasi, innovatsiya, innovatika, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat, innovatsion muhit, novatsiya, novator, innovatsion pedagogik reja, innovatsion pedagogik g'oya, innovatsion ta'lim, innovatsion texnologiya, innovatsion ta'lim maqsadlari, printsip.

### Аннотация

В статье анализируются инновационные педагогические технологии, их значение и концепции в преподавании.

### Ключевые понятия:

Педагогическая технология, педагогические цели, технология обучения, инновация, инновационность, инновационный процесс, инновационная деятельность, инновационная среда, новация, новатор, инновационный педагогический план, инновационная педагогическая идея, инновационное образование, инновационная технология, инновационные образовательные цели, принцип.

Mamlakatimizning ta'lim sohasidagi innovatsion islohotlari tizimida bo'lajak pedagog shaxsini shakllantirishning asosi bo'lgan kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish muammosi alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish o'quvchilarning mustaqil ijodiy tafakkurini o'stirish, pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalardan keng va samarali foydalanishnigina emas, balki, mazkur jarayonni rejalashtiruvchisi, amalga oshiruvchisi va boshqaruvchisi bo'lgan



o'qituvchining kasbiy saviyasi, kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalasiga chuqurroq yondashuvni talab etadi. SHu sababli mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylandi.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlariga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashning "O'zbek modeli" hayotga tadbqiq etildi.

O'zbekistonning kelajagi, uning istiqboli, birinchi navbatda yoshlar tarbiyasiga, ularni sog'lom qilib o'stirishga, milliy g'oya, milliy mafkura va o'z vataniga sadoqat ruhida tarbiyalashga bog'liq bo'lib, bu murakkab jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish mustaqil mamlakatimizning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shuning uchun ham, Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning "Mamlakatimizning istiqboli yosh avlodlarimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'lik faol munosabati bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanligini hamisha yodda tutishimiz kerak" deb ta'kidlagani bejiz emas. Shu boisdan ham bugungi kunda yoshlarning ta'lim-tarbiyasi mustaqil O'zbekistonning davlat siyosatida ustivor ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda maktablarda barcha fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darslarning o'z maqsadiga erishishida, samaradorligini ta'minlashda dolzarb xisoblanib uni keng joriy qilish *vazifalari* muhim sanaladi. «...Pedagog bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak.» (I.A.Karimov)[6]. Bunday olib qaraganda bugungi pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimiga zamonaviy yondoshuvni shakllantirish, bo'lajak mutaxassis shaxsidagi ijodkorlik, tadqiqotchilik, mustaqillik va innovatsion o'qitish texnologiyalarini bilish faolligi, ko'nikmalarini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan umumkasbiy fanlarning muhim vazifalaridan sanaladi.

Keyingi yillarda matbuotda, ilmiy adabiyotlarda, ko'plab anjuman va yig'ilishlarda, shu bilan birga rasmiy hujjatlarda „Yangi pedagogik texnologiya“, „Ilg'or pedagogik texnologiya“, „O'qitish texnologiyasi“, „Ta'lim texnologiyasi“, „An'anaviy pedagogik texnologiya“, „No'an'anaviy pedagogik texnologiya“, „Innovatsion (yangi yo'nalishdagi, tashqaridan yangi kiritilgan, yangiga o'xshash, no'an'anaviy) pedagogik texnologiyalar“ kabi tushunchalar uchrab turibdi. Pedagogik texnologiya tushunchasi pedagogik adabiyotlarda tez-tez qo'llanayotgani bois, unga bo'lgan fikr mulohazalar, munosabat va ta'riflar ham turlicha bo'lmoqda. Jumladan, T.Sokomotoning fikricha: „Pedagogik texnologiya - ta'limni sistemalashtirish yoki sinfda o'qitishni sistemalashtirish g'oyalarini pedagogikaga tadbqiq etishdan iborat.“[8]

M.V. Klarinning ta'riflashicha pedagogik texnologiya bu – „Pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan barcha shaxs, instrumental va metodik vositalarning sistemalashgan majmui va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi“[8]

„O'qitish texnologiyasi - ilmiy va boshka bilimlarning amaliy masalalarini hal etishda sistemali ravishda qo'llashdan iborat“deb takidlaydi T. Golbrayt.

„Pedagogik texnologiya - o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va aks ta'siri mahsuli sifatida ularga oldindan berilgan shaxs sifatlarini shakllantirishni kafolatlaydigan jarayon“- deb ta'riflab o'tgan N. Saidahmedov.[2]



“Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatlarni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonini ifodalash-loyihalashtir”- deb ta'kidlaydi V.P.Bespalko.

V.Fefelov ta'rificha: “Ma'lum ta'lim bosqichida bitiruvchi shaxs modeli asosida o'quvchi shaxsini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va tayyorlovchi kompleks, o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir etuvchi blok tizimlar - pedagogik texnologiya deyiladi”.

Keltirilganlarning umumlashmasi sifatida YuNESKO quyidagi ta'rifni beradi: “Pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifalarini o'z oldiga qo'ygan texnik va inson imkoniyatlarini va ularning o'zaro bog'likliklarini hisobga olgan holda o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashlarning tizimiy usullaridir”.[6] Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, ta'limga tizimli yondashuv boshqa yondashuvlardan farqli o'laroq pedagogik texnologiyani xususiyatlarini belgilaydi. O'qitish maqsadlarini aniq belgilash, o'qitish jarayonini loyihalash, pedagogik muvaffaqiyatlarni kafolatlash, o'zaro bog'lik va o'zaro ta'sir etuvchi bloklar pedagogik texnologiyani muhim belga va xususiyatlari hisoblanadi.

Umuman “Pedagogik texnologiya” tushunchasi nimani anglatadi? Texnologiya tushunchasi yunoncha “texnos” - “hunar”, “logos” - „fan” so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, “hunar fani” degan ma'noni anglatadi.

Innovatsiya – (ingliz tilidan olingan “Innovation” yangilik kiritish ) - tizim ichki tuzilishini o'zgartirish amaliyot va nazariyaning yaxshi qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tamoni o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarni amaliyotga kiritish)[5].Innovatsion yondashuvlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim sharti bo'lib ,ularning samarali joriy etilishi ilmiy asoslangan metodika, pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivoji hamda ta'lim muassasalarda qulay innovatsion muhit yaratish bilan bevosita bog'liqdir.

Innovatika - Yangilikni yaratish qonuniyatlarni o'zlashtirish va targ'ibotini o'rganadigan fan. Ta'lim sohasida esa pedagogik innovatika deganda pedagogik faoliyatda yangiliklarni yaratish, ularni baholash va ularni ta'lim jarayonida qo'llash tushuniladi.Bu ayniqsa nazriy bilim balki amaliy pedagogik yondashuvlar innovatsion o'qitish metodlari va ta'limni takomillashtirishni o'rganadi.

Innovatsion jarayon- Yangilikning kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimini yangi sharoitlarga ko'rsatkichlarga muvaffaqiyatli o'tishni ta'minlovchi o'zgarishlar. Innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amaliyotga kiritish jarayoni.

Innovatsion faoliyat - Yangi ijtimoiy talablar bilan a'naviy me'yorlarning mos kelmasligi. Amaliyotning yangilanayotgan me'yorlarning mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmualar muammolarni yechishiga qaratilgan faoliyat deb aytib o'tgan V.I.Slobotikov.

Innovatsion muhit - Bu pedagogik jamoda, umuman ta'lim muassasida shunday ijodiy, samimiy do'stona sharoit tug'dirdiki, unda o'qituvchi o'zini erkin xis qiladi. Jamoda ichki intilish moddiy ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo'ladi. U muhitda o'qituvchi ijodiy fikr yuritishga, intilishga tayyor bo'ladi.

Innovatsiya - ma'lum bir faoliyatda shakl, metodlar, muammolarni yechishdagi yangicha yondashuv, yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash orqali yuqori natijalarni ta'minlash. Bir so'z bilan aytganda, jarayonga kontseptual yonashuv.

Novatsiya - Agar islohat faoliyatining shakli, mazmuni va ko'lam qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit xususiyatga ega bo'lmasa, u o'z oldiga muayyan mavjud tuzimda faqat ba'zi elementlarni o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u xolda biz novatsiya bilan muloqat qilayotgan bo'lamiz.



Novator - Yangilikni qabul qilish va uni amalga oshirishga tayyor shaxs. O'z shaxsiy pedamaliyotida doimiy yangilik izlaydi, o'zlashtiradi, qo'llaydi.

Innovatorlar yangiliklardan va ular kommunikativ muloqat o'rnatadi. Ishni yaxshilash maqsadida tavakkal shakilda ish ko'radi.

Innovatsion pedagogik reja - Yaratilgan, tasdiqlangan innovatsion o'quv-tarbiyaviy loyiha.

Innovatsion pedagogik g'oya - Tizimlashtirilgan pedagogik g'oyalar, o'quv jarayonini bashorat etuvchi ma'lumotlar. Bunda ta'limni rivojlantirish xizmat qiluvchi, ilmiy asoslangan va amaliy natija beruvchi yangicha pedagogik fikrdir. U pedagogning ijodkorligi va kasbiy mahoratini namoyon etadi.

Innovatsion ta'lim - Ta'lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar.

Innovatsion texnologiya - Pedagogik taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy faoliyat jarayoni. (faollik, didaktik, o'yinlar, evristik, kreativ, muommali, modullashgan algoritmizatsiya, loyihali Akt-texnologiyalar).[7]

Innovatsion ta'lim maqsadlari - Yangi tizimdagi ta'lim muassalari akademik litseylar, kollejlari, maktabgacha ta'lim maskanlari, ixtisoslashtirilgan sinf maktablari, yangi sohaga moslashgan yoki tashkil etilgan oliy o'quv yurtlari.

Innovatsion pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoniga o'ziga xos bo'lgan innovatsion yondashuvdir. U pedagogikada ijtimoiy-muxandislik taffakurning ifodasi, o'qitish, tarbiyalash jarayonini ma'lum darajada standartlash demakdir. Jumladan, o'qitishning ko'rgazmalilik asosida, kompyuterlar, ta'limning texnik vositalari yordamida o'qitish, o'quvchini bilish faoliyatining boshqaruvchisi, tashkilotchisi, maslahatchisi, yakuniy natijaga erishishga yo'llovchisi - o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning ko'proq mustaqil ishlarini tashkil etish va eng muhimi o'qituvchining deyarli bir-xil yakuniy natijaga erish imkoniyatlarining majmuidir.

Demak, innovatsion pedagogik texnologiya tushunchalarini mazmun mohiyatini to'g'ri anglash va tushunish umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishga asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshga bog'liq xususiyatlari 1-sinf dan 4-sinf gacha yaqqol namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqib yoshlarni bilimli qilib tarbiyalashda ta'lim texnologiyalarini to'g'ri tanlash va o'z o'rnida to'g'ri foydalanish kutilgan samarani beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сайидахмедов Н. “Янги педагогик технология принциплари”, “Маъориф” газета № 85, 1995 йил, 27 октябрь, -Б. 1-3.
2. Н. Саидахмедов. “Янги педагогик технологиялар” 2003 й, -Б. 82-92
3. Йўлдошев Ж.Г. «Янги педагогик технологиялар» (йўналишлари, муам -молари, ечимлари) – «Бошланғич. таълим», 1999 йил, № 6. 2-5 бетлар.
4. Қосимов, А.Х Холиқова Ф. “Педагогик маҳорат ва Педагогик технологиялар” Тошкент, ТАТУ 2004 йил. 112 б.
5. Голиш Л.В. «Замонавий таълим технологиялари: мазмун, лойиҳалаштириш ва амалга ошириш» Экспресс қўлланма Т. ТАСИС, 2001 йил.-Б. 59.
- 6.Xodiev B. va boshq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009.
- 7.Hasanova M.G'., Ahmedova N.SH. Geografiya darslarida innovatsiya texnologiyalaridan foydalanish //Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008. 64-66 b.
- 8.Ensiklopediya pedagogicheskiy texnologiy. – M.: Vldos, 2005. – 463

